



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 2a-uy Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

2025-yil " 22 " -avgust

05-14-5803-son

Qoraqalg'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahri maktabgacha va maktab ta'limi boshqarma boshliqlariga

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 26 maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-son Farmoni 3-bandi 10-xatboshida xalqaro standartlar asosida malaka sertifikatini olgan pedagog kadrlarga tarif stavkalarining amaldagi miqdorlariga nisbatan **70 foiz** miqdorida qo'shimcha haq to'lanishi belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 48-bandida pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish va malaka toifalari berish tizimi xalqaro e'tirof etilgan vakolatli xorijiy tashkilotlarning akkreditatsiyasidan o'tkazilgandan so'ng attestatsiyada ishtirok etib, 86 va undan yuqori ball olgan pedagoglarning bazaviy tarif stavkalariga qo'shimcha **70 foiz ustama belgilanishi** hamda ustamaning **amal qilish muddati ikki yil** bo'lib, muddat yakunlangandan so'ng ustama uchun sinovlarda qayta ishtirok etish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Shunga ko'ra, joriy yilning yanvar-iyun oylarida o'tkazilgan pedagog kadrlar attestatsiyasi natijalariga ko'ra **4 199 nafar** pedagoglar **86 va undan yuqori ball to'plab oliy va birinchi malaka toifasiga** erishgan (yoki saqlagan) bo'lib, ularning bazaviy tarif stavkalariga qo'shimcha **70 foiz** ustama belgilanadi.

Moliyaviy xato va kamchiliklarni oldini olish maqsadida ushbu natijaga erishgan pedagog xodimlar ro'yxati "ERP" dasturiy majmuasida shakllantirilib, ularga ilovadagi namunada **ma'lumotnoma** berildi hamda "UzASBO-2" dasturiy majmuasiga integratsiya qilinib, ma'lumotnomaga ega xodimlarga qo'shimcha ustama to'lash imkoniyati yaratildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib:

faqat "ERP" dasturiy majmuasida ro'yxati shakllantirilib **ma'lumotnoma** berilgan xodimlarga qo'shimcha **70 foiz** ustama to'lovi to'lanishini doimiy

nazoratga olishingiz hamda tuman (shahar)lardagi mas'ul xodimlarga bu bo'yicha tegishli ko'rsatma va tushuntirishlar berishingiz;

yuqorida qayd etilgan Nizomning 48.1-bandida "...ish haqlari sertifikat generatsiya qilingan kundan boshlab qayta hisoblanadi." deb belgilanganligini inobatga olishingiz so'raladi.

Vazir o'rinbosari



T. Komilov